



INGLIZ VA ARAB TILLARIDA HOLAT KATEGORIYALARI
(ARTIKL)LARNING IFODALANISHI

Maxmudova Nargiza Ravshanovna

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi

Maxmudova Mohlaroyim Muzaffar qizi

Far.DU Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi 21.07- guruh magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va arab tillarida holat kategoriyalarining qay tarzda ifodalanishi, o'xshash va farqli tomonlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: holat kategoriyasi, artikllar, aniq artikl, noaniq artikl, pragmatik holat, semantik holat.

Tilshunoslikda ma'lumki, turli tizimli tillarda holat kategoriyalari ilmiy jihatdan atroflicha o'rganilgan. Holat kategoriyalari aslida artikllar deb yuritilib, turli oilalarga mansub tillarda ularning ayrim o'xshash jihatlari, farqli tomonlari va istisno holatlari mavjud. Tilimizga artikl nomi bilan o'zlashgan holat kategoriyasining arab va ingliz tillarida qo'llanilishida ko'plab farqlar bilan birgalikda bir qancha o'xshashliklar ham yo'q emas.

Asosiy qism

Ma'lumki turli tizimli tillarda holat kategoriyalarining ifodalanishi turlicha. Holat kategoriyalari shuningdek, artikllar deb yuritilib, u ba'zi tillarda mavjud, ba'zi til oilalarida esa ushbu kategoriya qo'llanilmaydi. Holat kategoriyasi qo'llaniladigan til oilalarida esa ularning o'xshash va farqli jihatlari, shuningdek, istisno holatlari ham mavjud. Dastlab artikl so'zining izohiga to'xtaladigan bo'lsak, **artikl** ([lotincha](#): *articulus*) — ba'zi tillarda otning oldida kelib, aniqlik ma'nolarini



bildiradigan old qo'shimcha. Bir xil tillarda (ingliz) Artikl kelishik, jins va sonda o'zgaraydi, ayrim tillarda (nemis) o'zgaradi. O'rta Osiyo mumtoz adabiyotida arabcha (al) artikli (arab tilidan kirgan so'zlarda) otlar oldidan kelib, aniqlik ma'nosini beradi. Agar al qamariya harflaridan oldin kelsa, to'la o'qiladi: alkitob- muayyan bir kitob, Qur'on; al-Xorazmiy, al-Beruniy. Shamsiya harflaridan oldin kelsa, talaffuzda tushib, undan keyingi harf takrorlana-di: ash-shamsu; an-nabiy — kabi. Artikllarning ikki turi mavjud bo'lib, ular aniq artikl va noaniq artikl deb yuritiladi. Ingliz tilida artikl - otlarning asosiy ta'rifi. Gap qurilayotganda, birinchi navbatda, artikllar haqida o'ylash kerak, so'zlovchi aniq yoki noaniq otni belgilaydi va keyin artikllar qo'yiladi. Boshqacha qilib aytganda, biz aniq yoki umumlashtirilgan narsa haqida gapiramiz. Ba'zi til oilalarida artikllar yo'q, shuning uchun bu mavzu ko'pchilik uchun ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, o'zbek var rus tillarida artikllar mavjud emas. Ingliz tilida strukturani tuzishda artikllar deyarli barcha holatlarda qo'llaniladi va u quyidagicha farqlanadi:

- Aniq artikl yoki u tegishli bo'lgan aniq artikl - **the**;
- Noaniq artikl yoki ular murojaat qiladigan noaniq artikl - **a** va **an**.

Ingliz va arab tillarida ham so'zlovchiga oldindan ma'lum bo'lgan so'zlarda aniq artikli, aksincha so'zlovchiga noaniq bo'lgan holatlarda esa noaniq artikl qo'llaniladi. Masalan:

I read a book (noaniq)

Men bir kitob o'qidim (noaniq)

The book was very interesting (aniq)

O'sha kitob juda qiziqarli edi (aniq)

Arab tilida ismlar aniq yoki noaniq holatda bo'lishi mumkin. So'zlovchiga oldindan noma'lum bo'lgan so'zlar noaniq holatda, avvaldan ma'lum bo'lgan so'zlar aniq holatda ifodalanadi. Quyidagi so'zlar aniq holatda deb hisoblanadi:

1. **الْبَيْتُ ، الْكِتَابُ ، الْوَلَدُ ، الْمَدْرَسَةُ** (al) artikli bilan kelgan so'zlar:

.2 Bu artikl bo'lmagan quyidagi ismlar:

a) atoqli otlar: **مِصْرُ ، مَكَّةُ ، طَشَقَنْدُ ، أَحْمَدُ ، فَاتِمَةُ** kabi;

b) ko'rsatish olmoshlari: **هَذَا ، هَذِهِ ، ذَلِكَ ، تِلْكَ** kabi;

c) kishilik olmoshlari: **أَنَا ، أَنْتَ ، أَنْتِ ، هُوَ ، هِيَ ، نَحْنُ ، أَنْتُمْ** kabi;



d) qaratqich — qaralmish shaklidagi (izofa) birikmaning 1- bo'lagi: طَالِبٌ ، الطَّالِبِ كِتَابٌ
طَالِبُ الْجَامِعَةِ kabi;

Tanvin bilan tugagan so'zlar noaniq holatda deb hisoblanadi:

(bir) maktab — مَدْرَسَةٌ (bir) qiz — بِنْتٌ (bir) kitob — كِتَابٌ

Artikl otlar oldida ishlatiladigan maxsus soʻzlardir. Oʻzbek tilida artikl mavjud emas. Artiklning alohida tarjimasi yoʻq. Ot oldida artiklning ishlatilishi va ishlatilmasligining ahamiyati katta.

Ingliz tilida ham huddi arab tilida boʻlganidek ikkita artikl mavjud: Noaniq artikl (The Indefinite Article) va aniq artikl (The Definite Article). Noaniq artiklning ikkita shakli bor: a va an. An shakli unli tovushlar bilan boshlangan otlar oldida keladi: an opera, an apple, an hour. Qolgan hollarda artiklning a shakli ishlatiladi: a pen, a book, a student. Aniq artiklning bitta shakli bor: the. Noaniq artikl eski ingliz tilidagi ān (bir) soʻzidan kelib chiqqan, shuning uchun ham u faqat birlikdagi otlar oldida ishlatiladi. Aniq artikl eski ingliz tilidagi the (u, oʻsha) koʻrsatish olmoshidan kelib chiqqan boʻlib, baʼzi hollarda hozir ham dastlabki maʼnosini saqlab qolgan. Noaniq artikl ishlatilganda otning biror turga (sinfga) mansubligini bildiradi va quyidagi holatlarda ham qoʻllaniladi:

- **a** va **an** birlikdagi ot oldida ishlatiladi. Ular “bitta” degan maʼnoni anglatadi.
- **a** odatda undosh bilan boshlanuvchi soʻzlar oldida ishlatiladi: **a** boy, **a** bad mood, **a** book, **a** pen.
- **an** odatda a, e, i va o unlilari bilan boshlanuvchi soʻzlar oldida ishlatiladi.
- **an** apartment, **an** angry man, **an** elephant, **an** empty room
- Agar birlikdagi otdan oldin sifat kelsa, (masalan, small, old) **a** yoki **an**

sifatning oldida keladi : I have a small apartment - Menda kichik kvartira bor.



- H harfi bilan boshlanuvchi soʻzlarda: (1) Agar **h** talaffuz qilinmasa, **an** ishlatiladi: **an** hour, **an** honor, **an** honest person

(2) Agar **h** talaffuz qilinsa, **a** ishlatiladi: **a** holiday, **a** hotel, **a** high point.

Aniq artikl oʻrta boshqa shu turdagi oʻrnlardan ajratib koʻrsatganda ishlatiladi. Aniq artikl (The Definite article) – the – that (oʻsha) koʻrsatish olmoshidan kelib chiqqan. U birlik va koʻplikdagi donalab sanaladigan hamda donalab sanalmaydigan oʻrnlardan oldidan ishlatiladi. Geografik nomlar bilan artiklning ishlatilishi maʼlum qoidalarga ega. Masalan, aniq artikl daryolarning nomi bilan ishlatilgan bir paytda koʻllar nomi oldidan qoʻyilmaydi. Bitta togʻ (yoki bitta orol)ning nomi artiklsiz ishlatilsa, togʻlar tizmasi nomi oldidan, albatta, aniq artikl qoʻyilishi shart. Bundan tashqari, artikllar ishlatilmaydigan istisno holatlar ham mavjud boʻlib, ular quyidagilar:

-Lake Baikal, Lake Ontario, Lake Michigan, Lake Geneva, Crater Lake;
biroq: **the** great Salt Lake, **the** Great Lakes.

-America, North America, South America, Latin America, Europe, Asia, Africa, Australia, Antarctica; Northern Africa, Eastern Europe, Western Europe, Central Europe, Central America, Southern Asia, South Asia, Southeast Asia.

-Everest, Fuji, Kilimanjaro, Elbrus, Mount Whitney.

Capitol Hill, Telegraph Hill

-Main Street, Wall Street, 42nd street, Oak Alley, maple Boulevard, Fifth Avenue, Sixth Avenue, Lexington Road, Highway 66

Biroq: **the** Arbat, **the** Mall

-Cape Horn, North Cape, Cape Canaveral, Cape Chelyuskin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:



- 1.Блох М.Я. Теоретическая грамматика английского языка.
- 2.Кверк Р., Гринбаум С., Лич Дж., Свартвик Я. Грамматика Современного английского языка для университетов = Quirk
- 3Abbott, Barbara (2006). "Definiteness and indefiniteness". In Horn, R. L.;
- 4Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
- 5.N.A.Bonk “Ingliz tili darsligi” Namangan 2006
- 6.Raymond Murphy. Essential Grammar in Use Cambridge, 1994.
- 7.Eminjon Talabov “ Arab tili darsligi” Toshkent O’zbekiston 1993-yil
- 8.Amonov M.U.(2021) On Arab borrowings, denoting the name of the profession, which is actively used in the Uzbek language. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(103), 863-866.
9. N. Maxmudova Some comments on teaching Uzbek language to children of related languages Science and innovation 1 (B8), 550-556, 2022.